

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 49 297,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,1 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



106,8 %

49 297,7 mlrd. so'm



108,6 %

6,1 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	<b>Mird. so'm</b>		<b>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</b>
	<b>2024- yil</b>	<b>2025- yil</b>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>42 508,6</b>	<b>49 297,7</b>	<b>106,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	41 778,8	48 343,6	106,7
mahsulotlarga sof soliqlar	729,8	954,1	110,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>41 778,8</b>	<b>48 343,6</b>	<b>106,7</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10 835,5	11 527,2	104,8
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>11 237,0</b>	<b>13 374,0</b>	<b>108,5</b>
sanoat	8 232,5	9 894,2	106,9
qurilish	3 004,5	3 479,8	112,6
<b>xizmatlar</b>	<b>19 706,3</b>	<b>23 442,4</b>	<b>106,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 537,0	7 846,7	109,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 581,7	3 514,5	114,1
boshqa xizmat tarmoqlari	10 587,6	12 081,2	103,4



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinish turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 842,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,7 % ga yuqoridir.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	<b>2024- yil</b>	<b>2025- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25,9	23,8
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,9</b>	<b>27,7</b>
sanoat	19,7	20,5
qurilish	7,2	7,2
<b>xizmatlar</b>	<b>47,2</b>	<b>48,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,6	16,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	7,3
boshqa xizmat tarmoqlari	25,4	25,0



2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 23,8 % ni, sanoat tarmog'i 20,5 % ni, qurilish 7,2 % ni va xizmatlar sohasi 48,5 % ni tashkil aildi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

**2024- yil**



25,9%  
Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi

1,7 %

19,7%  
Sanoat

7,2 %  
Qurilish

47,2%  
Xizmatlar

**2025- yil**

Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi

23,8%

1,9 %

Sanoat

20,5%

Qurilish

7,2 %

Xizmatlar

48,5%



 **Yalpi qo'shilgan qiymat**

 **Mahsulotlarga sof soliqlar**

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,9 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,2 f.p. (2024- yil ning yanvar-iyunida – 3,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

### YAHM



**6,8 %**

### Sanoat



**1,3 %**

### Xizmatlar



**3,2 %**

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



**1,2 %**

### Qurilish



**0,9 %**

### Mahsulotlarga sof soliqlar



**0,2 %**

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 23,8 %), sanoatda – 106,9 % (20,5 %), qurilishda – 112,6 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 106,8 % ni (48,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,5 % (16,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,1 % (7,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (25,0 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- y.

2025- y.



6,5 %

YAHM

6,8 %



4,8 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

4,8 %



8,7 %

Sanoat

6,9 %



6,6 %

Qurilish

12,6 %



6,9 %

Xizmatlar


6,8 %

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'satkichlari sanoat – 112,4 % va xizmatlar – 111,3 % qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 33 858,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 29 393,9 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 70,0 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq.

## Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

